




A.J.Musagaliev

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

fanidan noiqtisodiy ta'lim yo'nalishining
bakalavriat bosqichi uchun

O'QUV METODIK QO'LLANMA

Nukus – 2011





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
NUKUS FILIALI**

A.J.Musagaliev

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

fanidan noiqtisodiy ta'lim yo'nalishining
bakalavriat bosqichi uchun

O' Q U V M E T O D I K Q O' L L A N M A

Nukus – 2011

Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv metodik qo'llanma. – Nukus. Toshkent pediatriya tibbiyot institutining nukus filiali, 2011. - 23-bet.

Tuzuvchi:

Musagaliev A.J. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filialining “Ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri, iqtisod fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Ubaydullaev Q. – Qoraqalpoq davlat universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, professor.

Xojalepesov P. – Nukus davlat pedagogika institutining “Iqtisodiyot va ijtimoiy menedjment” kafedrası mudiri, iqtisod fanlari nomzodi.

Paxratdinov A. – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filialining Moliya va iqtisodiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari, kimyo fanlari nomzodi.

O'quv metodik qo'llanma Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Musagaliev Ajiniyaz Jumagulovich.

Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv metodik qo'llanma. – Nukus.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali, 2011. - 23-bet.

UDK : 336.221 + 575.1

Mazkur o'quv metodik qo'llanmada oliy ta'lim noiqtisodiy ta'lim yo'nalishining bakalavriat bosqichida o'qitiladigan «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'rganishda rahbarlikga olinadigan namunaviy va ishchi o'quv dasturlari asosida ma'ruza va amaliy dars mashg'ulotlari rejasi, fan bo'yicha mustaqil ish mavzulari hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatilgan. Metodik qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarida soliqlar va soliqqa tortish yo'nalishi bo'yicha fanlarni o'qitishda va ishchi o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

© Musagaliev Ajiniyaz Jumagulovich.

© Toshkent pediatriya tibbiyot institutining
Nukus filiali, 2011 y.

SO'Z BOSHI

O'quv metodik qo'llanmaning maqsad va vazifalari

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda jamiyatimizda umumahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat ma'lum miqdordagi moliyaviy manbalarga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida soliqlar va ularga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlar orqali davlat byudjeti hamda ijtimoiy jamg'armalarning daromadlari shakllantiriladi. Mazkur munosabatlar oliy ta'limning bakalavriat bosqichining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida batafsil o'rganib chiqiladi, lekin bizning fikrimizcha, noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda ham soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid tushunchalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bakalavriat bosqichining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'qitish jarayonida soliqlarning nazariy masalalari, jumladan, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ularning ob'ektiv zarurligi, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari to'g'risida atroflicha o'rganiladi.

"Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'qitishdan maqsad - talabalar ongida soliqlar to'g'risidagi tasavvurni hosil qilish va soliq to'lovchi sub'ektlardan undirilayotgan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarning huquqiy asoslarini, ular orqali to'plangan daromad manbalaridan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni shakllantirish hisoblanadi.

Fanning oldiga qo'yilgan vazifalar: soliqlarning mohiyatini, davlat soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, soliq tizimining nazariy jihatlarini, soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lov turlari hamda ularni undirish bilan bog'liq munosabatlarni o'rgatishdan iboratdir.

Shu bilan bir qatorda "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'rganish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining tadrijiy rivojlanishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram I.A.Karimov tomonidan chiqarilayotgan Farmon hamda qarorlarning tub ma'no-mohiyatini talabalar ongiga singdirishda yaqindan yordam beradi.

**«Soliqlar va soliqqa tortish» fani bo'yicha o'tiladigan
mavzular va ajratilgan soatlar taqsimoti**

T/r	Mavzular mazmuni	jami soatlar	shu jumladan:	
			ma'ruza	amaliy mashg'ulot
1.	«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.	4	2	2
2.	O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi va davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari. Soliq munosabatlari sub'ektlarining huquq va majburiyatlari.	4	2	2
3.	Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tamoyillari. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.	4	2	2
4.	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Yagona soliq to'lovi.	4	2	2
5.	Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.	4	2	2
6.	Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i. To'lovchilar, ob'ekti, bazasi va stavkalari.	4	2	2
7.	Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va er solig'i.	4	2	2
8.	Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.	4	2	2
9.	Mahalliy soliqlar va yig'implar. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar.	4	2	2
Jami:		36	18	18

Ma'ruza – 18 soat

Amaliy mashg'ulot – 18 soat

Jami - 36 soat

«SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH» FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

1-mavzu:

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini oliy ta'lim noiqtsodiy ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalariga o'qitishning zarurligi, fanning maqsadi va vazifalari. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi. Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Soliqlarning tavsifi va umumiy belgilari. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi tutgan o'rni va ahamiyati. Soliqlarning paydo bo'lish tarixi va soliqqa tortishning mumtoz klassik tamoyillari. Soliqlar nazariyasining evolyutsion rivojlanishi va uning hozirgi davrdagi talqini. O'zbekiston Respublikasida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining printsiplari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga umumiy tavsifnoma va unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar.

2-mavzu:

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi va davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari. Soliq munosabatlari sub'ektlarining huquq va majburiyatlari.

Soliq tizimining mohiyati. Soliq tizimini guruhlanish tartibi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi: iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) soliqlarga; byudjetga kelib tushishiga ko'ra umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'implarga; soliq to'lovchilari nuqtai-nazaridan yuridik shaxslardan va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga. Soliq siyosatini ruyobga chiqarishda davlat organlarining tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilishda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston milliy soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o'zaro bog'liqligi, o'xshashlik va farqli jihatlari. Soliq

to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida belgilangan fuqarolarning soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3619 sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining mazmun mohiyati. Nazorat organlarining mansabdor shaxslari javobgarligini oshirish va ular tomonidan tekshirishlarni o'tkazish tartibiga kiritilgan o'zgartirishlar.

3-mavzu:

**Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tamoyillari.
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.**

O'zbekiston soliq tizimida soliqqa tortishning umumiy tamoyillari: majburiyligi, aniqligi, adolatligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchilarning haqligi prezumtsiyasi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining byudjet daromadlarida tutgan o'rni. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lovchilari tarkibi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi. Yuridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi. Jami daromaddan chegirmalar. Xarajatlarning guruhlanishi, chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash muddatlari. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha davlat soliq xizmati organlarining nazorati.

4-mavzu:

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Yagona soliq to'lovi.

Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tatbiq etilishi. Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati. Soddalashtirilgan soliq

tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona er solig'i, qat'iy belgilangan soliq. Yagona soliq to'lovini to'lovchilari tarkibi. Yagona soliq to'lovining soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi. Yagona soliq to'lovi stavkalari. Yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Yagona er solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi. Soliq imtiyozlari va soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. Qat'iy belgilangan soliq va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620 sonli "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining mazmun mohiyati. Soliq yukini kamayishining mikrofirma va kichik korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatiga tasiri. Yagona soliq to'lovini to'lovchilarga tatbiq etilgan imtiyozlar.

5-mavzu:

**Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i.
Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.**

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliq va uning o'ziga xosligi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi. Stavka shkalalari, yuqori va quyi pog'ona. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lov manbaida ushlab qolish. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirish jarayoni.

6-mavzu:

**Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i.
To'lovchilar, ob'ekti, bazasi va stavkalari.**

O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti. Soliq ob'ektining tarkibi:

soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti. Soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlarni belgilash, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish. Soliqdan ozod etiladigan tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari. Hisob-varaq faktura. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi va to'lash muddatlari. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi.

Aktsiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rne. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i. Aktsiz solig'i to'lovchilarining tarkibi. Aktsiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aktsiz solig'i stavkalari. O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan aktsizosti mahsulotlariga qo'llaniladigan soliq stavkalari. Aktsiz solig'ini hisoblash tartibi. Soliqdan chegirma, soliq davri. Hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi, aktsiz solig'ini to'lash muddatlari. Aktsiz markalari va ularni qo'llash tartibi.

7-mavzu:

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va er solig'i.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirishning huquqiy asoslari. Mol-mulk solig'ini to'lovchilar. Mol-mulk bo'yicha soliq solish ob'ekti, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar. Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi, soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash uslubiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar. Soliq solinadigan bazani kamaytirish va soliqdan ozod qilish. Soliqni hisoblab shiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to'lash tartibi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq va uning mahalliy byudjet daromadlarida tutgan o'rne. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi. Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash muddatlari.

Er solig'i joriy etilishining asosiy sabablari. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lovchilar. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ining

soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza. Er solig'i stavkalari va uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i va uning iqtisodiy ahamiyati. Soliq to'lovchilar. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining ob'ekti va uni aniqlash tartibi. Er solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari va ularning tabaqalanishi. Er solig'ini hisoblash va uni byudjetga undirish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lash muddatlari.

8-mavzu:

Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilar tarkibi. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilish tartibi. Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va byudjetga to'lash tartibi. Qo'shimcha foyda solig'i. Foydali qazilmalar va soliq solinadigan mahsulotlar ro'yxati, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Bonuslar. Imzoli bonus va tijoratbop topilma bonus.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning huquqiy asoslari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti. Er usti va er osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi. Soliq davri, hisobot davri. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish tartibi va byudjetga to'lash muddatlari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq hisob-kitoblarini topshirish muddatlari.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari tarkibi. Soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza. Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan soliq solinadigan bazani aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq bo'yicha imtiyozlar hamda soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar. Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni chakana realizatsiya qilish. Soliq davri. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari. Mahalliy davlat organlari. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibi.

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamfarnasiga sug'urta badallarini to'lovchilar tarkibi. Soliq solish ob'ekti, soliq solinadigan baza. Imtiyozlar. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'implarni to'lovchilar tarkibi va ularni hisoblab chiqarish, hisob-kitobini taqdim etish va ularni to'lash tartibi.

AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA

KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti va uni o'qitishning zarurligi. Soliqlar va soliqqa tortish fanining amaldagi soliqlar va soliqqa tortish tizimi bilan tanishtirishga qaratilganligi.

2. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi, ularning amal qilish xususiyatlari. O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjet daromadlaridagi salmog'i hamda ularning o'zgarish sabablari. Davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.

3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tamoyillari, foyda solig'i. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning byudjet daromadlarida tutgan o'rni. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

4. Soddalashtirilgan soliq tizimi va yagona soliq to'lovi. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tatbiq etilishi. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona er solig'i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq. Yagona soliq to'lovi va uning amal qilish jarayoni. Yagona er solig'ini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.

5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning o'ziga xosligi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

6. Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini to'lovchilari. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Aktsiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni hamda o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

7. Mol-mulk solig'i va er solig'i, ob'ekti, bazasi, to'lovchilari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va uning ahamiyati. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Er solig'ining iqtisodiy mohiyati va joriy etilishining asosiy sabablari. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining iqtisodiy ahamiyati va hisoblash tartibi.

8. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

9. Mahalliy soliqlar va yig'imlar. Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar va yig'imlar. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining iqtisodiy mohiyati. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning amaliyotga kiritilishi va uning iqtisodiy ahamiyati. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari. Mahalliy yig'implarni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Soliqsiz daromadlarning mohiyati va zarurligi. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar. Respublika y'li jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'imlar. Moliya vazirligi huzuridagi maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasining tashkil etilishi va uning iqtisodiy ahamiyati.

Maktab ta'limini rivojlantirishda majburiy to'lovlarni to'lovchilar tarkibi va hisoblash tartibi.

Amaliy mashg'ulotlarni bajarish jarayonida multimedia vositalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Mavzuni yoritish jarayonida xalqaro moliya munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bunda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining asosiy mazmuni talabalarga etkazilishi, ularning mavzuga oid qismlaridan ko'chirmalar tarqatma material sifatida o'rganilishi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlarini o'rganishda axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Internet saytlari ma'lumotlaridan samarali foydalanish, xalqaro moliya tashkilotlarining faoliyati, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, inqirozga qarshi choralar dasturining mazmun mohiyati to'g'risida rasmiy yangi ma'lumotlarni olib foydalanish lozim.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Maxsus kursni o'zlashtirishda elektron materiallar, virtual stendlar hamda soliq xizmati organlari web-saytlari ma'lumotlaridan axborot texnologiyalardan foydalaniladi. Shuningdek, gipoteza va farazlarni ilgari surish va olingan natijalarni tekshirish, jarayonda tashabbuskorlik, intiluvchanlikni shakllantirishga qaratilgan mustaqil ta'lim metodlarining qo'llanilishi, mustaqil, tahliliy, ijodiy fikrlash uchun muhit yaratilishi, jarayonning modellashtirilishi, hamkorlikning ortishiga erishish kabi pedagogik texnologiyalardan ma'ruza va amaliy darslarda foydalaniladi.

Fanni o'qitishning informatsion-uslubiy ta'minoti

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitish jarayonida pedagogik ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron

didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproskop va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tahlillar, prognozli ko'rsatkichlarni hisoblash, diagrammalarni, personal kompyuterda elektron jadvallarda Excel dasturi bilan ishlash orqali fanning informatsion-uslubiy ta'minoti amalga oshiriladi.

**Soliqlar va soliqqa tortish fani bo'yicha talabalarning
bilim-malakalarini oshirish uchun tavsiya etilayotgan
mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni va ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasida umumdavlat soliqlarining amal qilish mexanizmi.
3. O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'implarning amal qilish mexanizmi.
4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va uning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat soliqlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar va yig'implar hamda ularni takomillashtirish.
7. O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish masalalari.
8. Yuridik shaxslardan olinadigan egri soliqlar va ularning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.
9. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va uning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.
10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga undirish tartibi.
11. Foyda solig'i bazasini aniqlash usuli, soliqni hisoblash va to'lash tartibi.
12. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning ishlab

chiqarishni rivojlantirishga bo'lgan ta'siri.

13. Soliq yukini aniqlash tartibi va uni optimallashtirish yo'llari.
14. Mikrofirma va kichik korxonalarni soliqqa tortish tartibi.
15. Kichik biznesni rivojlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati.
16. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning kichik korxonalarni rag'batlantirishdagi rolini oshirish masalalari.
17. Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
18. Yagona er solig'ini to'lovchilari, stavkalari, hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.
19. Yagona er solig'ini hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish.
20. Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish, uning o'ziga xos xususiyatlari.
21. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uni undirish tartibi.
22. Soliqqa tortish jarayonida deklaratsiyalash usuli, uning o'ziga xos xususiyatlari.
23. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
24. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy qilishning iqtisodiy sabablari.
25. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va hisob-kitoblarni taqdim qilish jarayoni.
26. Aktsiz solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.
27. Aktsiz osti tovarlarini belgilash va ularni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
28. O'zbekistonda mol-mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
29. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlari.
30. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalarini takomillashtirish masalalari.
31. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlari.
32. Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi.
33. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i va uni soliq tizimida tutgan o'rni.

34. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i, uni hisoblash va byudjetga undirish.
35. Resurslardan samarali foydalanishda soliqlarning ta'sirchanlik rolini oshirish masalalari.
36. Yuridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari va ularning korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta'siri.
37. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi.
38. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va uning stavkalarini belgilash mezonlari.
39. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibini takomillashtirish.
40. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash hamda to'lash tartibi.
41. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliqni hisoblash tartibi.
42. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish uchun yig'imi va uni hisoblash jarayoni.
43. Mahalliy hokimiyatlarning soliq-byudjet huquqlarini oshirish masalalari.
44. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar, yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini hisoblash va to'lash tartibi.
45. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash tartibini takomillashtirish yo'nalishlari.
46. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yg'implarni undirish tartibi.
47. Soliq nazoratini huquqiy tartibga solish va uni takomillashtirish masalalari.
48. Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi va muddatlarini takomillashtirish.
49. Soliqlar va yig'implar bo'yicha boqimandalarni undirish mexanizmini takomillashtirish.
50. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining taraqqiy etgan davlatlar soliq tizimi bilan solishtirma tahlili.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010. – B. 40.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2010. – B. 400.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil 14 dekabr.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: “O'zbekiston”, 1999. – B. 686.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2005. – B. 96.
7. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, ekrin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimizning garovidir. - T.: “O'zbekiston” NMU, 2007. – B. 64.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. – B. 176.
9. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild – T.: “O'zbekiston”, 2008. – B. 368.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: “O'zbekiston”, 2009. – B. 56.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2010. – B. 80.
12. Абдуллаев Ё., Яхёев Қ. Солиқ мавзусида 100 савол ва жавоб. – T.: “Меҳнат”, 1997. – B. 192.
13. Abduraxmanov O.K. Nalogovye sistemı s perexodnoy ekonomikoy: Monografiya. – M.: «Paleotip», 2005. – S. 376.
14. Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. – M.: “Dashkov i K”, 2006. – S. 312.
15. Baymuratov T., Radjabov U. Soliq menejmenti.: O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005. – B. 110.
16. Bard V.S, Pavlova L.P. Nalogi v usloviyax ekonomicheskoy integratsii. – M.: KNORUS, 2004. – S. 288.

17. Vahobov A., Burxanov U., Jumaev N. Chet mamlakatlar moliyasi: Darslik. – T.: «Yangi asr avlodi», 2003. – B. 344.
18. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi.: O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2005. – B. 282.
19. Jumaev N.X. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: mohiyati sabab-oqibatlar va O'zbekistonga ta'siri. Risola. – T.: JIDU, 2009. – B. 56.
20. Jo'raev A. Soliq nazariyasi.: O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2004. – B. 211.
21. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – T.: "Fan", 2004. – B. 387.
22. Jo'raev A. Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi.: O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2005. – B. 120.
23. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2005. – B. 544.
24. Isroilov B. Soliqlar hisobi va taxlili: muammolar va ularning echimlari. – T.: "O'zbekiston", 2006. – B. 270.
25. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2007. – B. 127.
26. Latipov A. Erdan foydalanish va soliqqa tortish. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2005. – B. 245.
27. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: «Akademiya», 2002. – B. 204.
28. Mamatov Z.T. i dr. Nalogoviy menedjment: Uchebnoe posobie. – T.: Nalogovaya akademiya GNK RUz., 2008. – S. 156.
29. Mirzaev T. va boshq. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T.: «Mehnat», 2003. – B. 301.
30. Musagaliev A.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. – T.: O'z.R. Davlat soliq qo'mitasi Soliq akademiyasi, 2010. – B. 120.
31. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Soliqlar tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Samarqand ISI, O'z.R. Soliq akademiyasi, 2007. – B. 100.
32. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli politiki nalogov: Uchebnoe posobie. – M.: «Finansi i statistika», 2005. – S. 256.
33. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – B. 204.
34. Toshmurodova B.E. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2005. – B. 156.

35. Toshmurodova B.E. Soliq nazorati.: O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – B. 120.
36. Umarov B. Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishning dolzarb masalalari. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005. – B. 179.
37. Urazov K. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. - T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2003. – B. 164.
38. Xvan L.B. Nalogovoe pravo: Uchebnik. – T.: “Konsauditinform”, 2001. – S. 404.
39. Shaulov D.İ., Kann U.T. Soliq qonunchiligi asoslari: O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2000. – B. 528.
40. Yahyoev K.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2003. – B. 247.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Bozor, pul va kredit jurnali. 2009-2010-yy.
2. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. 2009-2010-yy.
3. Soliq to'lovchining jurnali. 2009-2010-yy.
4. «Soliq va bojxona xabarleri» gazetasi 2009-2010 yy.

Internet sahifalari:

1. <http://www.soliq.uz//>
2. <http://www.mf.uz//>
3. <http://www.cer.uz//>
4. <http://www.stat.uz//>

MUNDARIJA

So'z boshi	5
Soliqlar va soliqqa tortish fani bo'yicha o'tiladigan mavzular va ajratilgan soatlar taqsimoti	6
Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning nazariy mashg'ulotlari mazmuni	7
Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ..	13
Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar	15
Fanni o'qitishning informatsion-uslubiy ta'minoti	15
Soliqlar va soliqqa tortish fani bo'yicha talabalarning bilim malakalarini oshirish uchun tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari	16
Adabiyotlar ro'yxati	19